

**MULTILEVEL IMTIHONIGA ONLAYN KURSLAR ORQALI
TAYYORLANISHNING AFZALLIKLARI**

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

Muallif: Abdurahmonova Marjona

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

ANNOTATSIYA. *Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda, Multilevel imtihoniga tayyorlovchi onlayn kurslar haqidagi anonslarga ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak. Chunki, bunday kurslar soni kun sayin ortib bormoqda. Xo'sh, bu o'zi qanday kurs? Ular qay tarzda olib boriladi? Ularning qanday afzalliklari mavjud? Ushbu maqolada shu va shu kabi savollarga atroflicha javob berishga harakat qildik.*

ABSTRACT. *These days, on social networks, you probably noticed announcements about online courses preparing for the Multilevel exam. Because the number of such courses is increasing day by day. So what kind of course is it? How are they conducted? What are their advantages? In this article, we tried to answer these and similar questions in detail.*

KALIT SO'ZLAR. *Multilevel, onlayn kurslar, an'anaviy (offlayn) kurslar, chet tili.*

KEY WORDS. *Multilevel, online courses, traditional (offline) courses, foreign languages.*

Dunyo rivojlanyapti. Insonlarda dunyoni, uning ilmlarini o'rganishga qiziqish ortyapti. Albatta, O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda emas. Bizga ham millionlab mehmonlar, sayohatchilar kelmoqda. Ayni mana shular ham O'zbekistonda til o'rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Dunyo millatlari va insonlarning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari bor. Til o'rganish esa insonni boshqa madaniyatlar bilan ham yaqinlashtiradi. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Bu quvonarli hol, albatta.

Xorijiy tillarni o'rganish insonga yangi madaniyat, bilim va yangi do'stlar bilan tanishish, muloqotga kirishish hamda dunyoqarashni o'stirishda yordam beruvchi eng yaxshi vositadir.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda chet tillarini o'rganayotgan yoki mutaxassisligi chet tili bilan bevosita bog'liq bo'lganlar uchun, chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikat (IELTS -- "International English Language Testing System", milliy sertifikat "Multilevel" va hokazo) talab qilinmoqda. Abituriyentlar, talabalar va o'qituvchilar aholining shunday qatlamlari toifasidandir. Shuningdek, chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikat olish uchun ko'pchilik milliy sertifikat Multilevel imtihonini topshirishni afzal ko'rmoqda. Sababi, Multilevel imtihoni boshqa til sertifikatlariga qaraganda arzonidir (IELTS, TOEFL -- "Test of English as a Foreign Language" va hokazolar kabi xorijiy til sertifikatlari nazarda tutilyapti). Albatta, Multilevel imtihoni topshirish uchun ham alohida tayyorgarlik talab etiladi (ayniqsa, birinchi marta topshirayotganlar uchun). Shu sababdan ham, abituriyentlar yoki talabalar buning uchun maxsus kurslarga qatnashadi. Ammo, hammada ham bunday kurslarga qatnash uchun yetarli imkoniyatlar bo'lmasligi mumkin. Chunki, an'anaviy kurslarga (repetitor) qatnash uchun anchagina xarajat sarf qilinadi (kurs uchun to'lov, bordi keldi uchun yo'lkira, tushlik va hokazo). Qolaversa, chekka hududlarda istiqomat qiluvchilar uchun shahar markazidagi bunday kurslarga qatnash bir qadar muammoli hamdir. Xo'sh, bunday holatlarda qanday yo'l tutish darkor?!

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan zamonda yashayapmiz. Deyarli barchamiz telefon, planshet, noutbuk va boshqa shu kabi gadjetlardan kundalik turmush tarzimizda har kuni foydalanamiz. Ular hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. Internet tarmoqlari hattoki eng chekka hududlargacha tarqalgan ekan, uning imkoniyatlaridan samarali foydala bilish ham zarur hisoblanadi. Bugungi kunda, ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy tillarni o'rgatuvchi, yoki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Multilevel imtihoniga tayyorlovchi maxsus onlayn kurslarga ko'zimiz tushadi. Bu kabi onlayn kurslarni ko'plab uchratish

mumkin. Aksariyat insonlar bunga e'tibor qaratishmaydi, ya'ni onlayn kurslarni offlayn (an'anaviy) kurslarning o'rnini bosa olmaydi deb o'ylashadi. Ularning fikricha, onlayn kurslar samarasizdir. Ammo, men bunday deb o'ylamayman. Aksincha, onlayn kurslar an'anaviy kurslardan-da samaraliroq deb bilaman. Negaki, onlayn kurslar qator afzalliklarga egadir. Xo'sh, onlayn o'qitish tizimi qanday amalga oshiriladi?

Masofaviy (onlayn) o'qitish bu- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, internet, elektron pochta, video konferensiya, audio, videoma'lumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan holda uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masofaviy o'qitishda talabadan doimiy faoliyat, interaktiv o'qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini, sifat xususiyatlarini oshiradi. Masofali o'qitishda o'qituvchi va talaba bir-biridan ancha uzoqda joylashgan holda ishlaydi. Lekin ular maxsus usullar yordamida tashkil etilgan o'quv kurslari, nazorat formalari, elektron pochta yordamidagi kommunikatsiya usullari va boshqa internet texnologiyalari yordamida doimiy o'zaro aloqada bo'lishadi. Masofaviy o'qitish barcha xohlovchilarga o'zlarining individual xususiyatlariga muvofiq professional darajalarini oshirish imkoniyatini beradi. O'qitishning bunday usulida tinglovchi o'quv-metodik materiallarni aniq bir vaqtlarda, mustaqil tarzda, interaktiv rejimda o'zlashtiradi, test sinovlaridan o'tadi, o'qituvchi rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va "virtual" o'quv guruhidagi boshqa tinglovchilar bilan o'zaro aloqa qiladi. Online o'qitish shaklida siz xohlagan joyingizda masofadan turib o'qish, darslarni o'zingiz uchun qulay vaqtda, hatto, tunda ham o'zlashtirish, ta'lim jarayoni tezligini o'zingiz nazorat qilishingiz, xarajatlar kamayishi (ya'ni, kursning o'zi, yo'l va tushlik uchun xarajatlar) shuningdek, o'zingizda tartib intizomni shakllantirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lasiz. Shuningdek, u individual ta'lim berishga asoslangan va ta'lim olish jarayoni o'quvchi hamda uning moslashuvchanligiga qarab o'zgaradi. Shu bilan birga, o'quvchida mustaqil tarzda ishlash ko'nikmasi ham paydo bo'ladi [3;2].

Misol uchun, o'quvchi Multilevel imtihonidagi 4 ta ko'nikma: O'qish,

Yozish, Tinglab tushunish va Gapirish ko'nikmalarini "virtual" o'qituvchisi yordamida, avval nazariy ma'lumotlar olish, so'ngra esa amaliy tarzda mashqlar bajarish orqali oshira oladi. Buning uchun esa, shunchaki internetga ulanish, saytga kirib jonli yoki yozib olingan video darslarni kuzatib borish, ko'rsatmalarga amal qilgan holda, berilgan mashqlarni mustaqil bajarish, javoblarni o'qituvchiga taqdim qilish va natijalarni bilib olish kerak bo'ladi. Bunda, agar siz o'qituvchi bilan individual tarzda o'quv mashg'ulotlarini olib borayotgan bo'lsangiz, o'qituvchingizdan xato va kamchiliklaringiz haqida bilib olishingiz va shu orqali, o'z darajangizni ko'tarish uchun nimalarga ko'proq ahamiyat berishingiz kerakligi haqida ham bilib olishingiz mumkin bo'ladi. Ammo shunda ham o'quvchi har bir materialni qunt bilan o'rganishi, darslarni o'tkazib yubormasligi va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, o'z darajasini yanada oshirish va imtihonda yuqori natijaga erishish maqsadida o'z ustida yana ham ko'proq ishlashi lozimligini tushunib yetishi va bularga qat'iy amal qilmog'i lozim.

Quyida onlayn kurslar orqali chet tilini o'rganishning 5 ta muhim afzalliklari keltirilgan:

- Multimedia;

Texnologiya innovatsiyasi hech qachon chet tilini o'rganishni osonlashtirmagan - hatto onlayn kurslarda ham. Bugungi kunda elektron ta'lim muhitida topilgan multimedia funksiyalari o'rganishning yangi usullarini o'z ichiga oladi. Jumladan: videolar, audio, grammatikani to'g'rilashning interaktiv vositalari, avtomatlashtirish, chatlar taxtasi, telefon, tezkor xabar almashish, veb-kameralar va boshqalar. O'qituvchilar ushbu texnologiya talabalarga o'rganish va aloqada bo'lishga yordam berishini aniqlamoqda. Bundan tashqari, multimediya talabalarning eslab qolish darajasini oshirishi va xatolarni yomon va sharmandali odatlarga aylanishidan oldin tuzatishi mumkin.

- Takrorlash;

Birinchi urinishda yangi chet tili darslarini kam sonli o'quvchi o'zlashtira oladi. Shunday qilib, takrorlash o'quvchilarga boshqa tilni chinakam o'zlashtirishga yordam beradi. Biroq, an'anaviy sinf muhitlari sizga o'qituvchi va darsni

buzmasdan darslarni joyida takrorlash imkoniyatini taklif qilmaydi. Aksincha, onlayn kurslarda bunday imkoniyat bor. Aytish kerakki, ular talabalarni butun o'quv jarayoniga jalb qiladilar. Bundan tashqari, elektron ta'lim talabalarga qulay va xavfsiz muhitni, shuningdek mustahkam va keng qamrovli ta'limni ta'minlagan holda o'z tezligida o'rganish imkonini beradi.

- Yangi metodlar;

Onlayn kurslar chet tilini o'rganish uchun "eski bilan emas, yangi bilan" yondashuvini taklif qiladi. Yangi tilni o'rganish yangi lug'atni o'rganish kabi oddiy emas. Darhaqiqat, ko'pincha bu uzoq vaqt o'rganish, sabr-toqat va vaqtni talab qiladi. Afzalligi shundaki, ko'plab onlayn kurslar o'qish, yozish, tinglash va yangi tilda gapirishga qaratilgan turli dars rejalari va multimedia vositalarini taklif qiladi. Bunday muhitda o'qituvchi hali ham o'sish va o'rgatilayotgan tilni tushunishga yordam beradi, biroq bir qator boshqa vositalar va manbalar talabalarga o'rganish va o'sishga yordam beradi.

- Foydalanish imkoniyati;

Ular kompyuter dasturlarida ishlagani uchun istalgan vaqtda onlayn xorijiy til kurslariga kirishingiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, siz tushlik tanaffusida ispan tilini yaxshilab o'rganishingiz, ertalabki yugurishdan oldin frantsuz tilini o'rganishingiz yoki qat'iy jadval cheklovlarisiz tunda nemis tilini mashq qilishingiz mumkin. Onlayn kurslar, shuningdek, sayohatga chiqmasdan, shaxsiy jadvalingiz ruxsat berganidek, kurs ishlarini istalgan joydan bajarishga imkon beruvchi mobil yechimlarni taklif etadi.

- Avtonomiya;

Onlayn til kurslari yangi tilni mustaqil o'rganishingizga yordam beradi. Biroq, bu mustaqil bo'lmagan talabalar uchun muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Agar siz o'zingizni rag'batlantirishda zo'r bo'lmasangiz, bu o'zingizni sinab ko'rish va o'sishning qiziqarli usuli bo'lishi mumkin. Ammo virtual sinf muhitida rejalashtirish, tayyorlash, texnologiyani tushunish va faol o'quvchi bo'lish mas'uliyati ham sizga yuklanadi [1;1].

Darhaqiqat, bu tizim hali unchalik keng ravishda tarqalmagan va taraqqiy

topmagan bo'lishi mumkin. Garchi shunday bo'lsa-da, onlayn kurslar orqali tayyorlanib imtihonda yuqori natijalarga erishganlar ham oz emas. Bundaylar soni tobora ortib bormoqda. Ular o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda, onlayn kurslar chindam ham samarali ekanligini ta'kidlaydilar. Xulosa shuki, faqatgina eskicha tizim bilan kifoyalanib qolmay, shu kabi yangi tizimlarni ham sinab ko'rish va ularni kengroq targ'ib qilish orqali o'zimiz uchun yangi jabhalarni kashf etgan bo'lamiz. Bunda eng asosiysi, inson o'z irodasiga tayangan holda ish ko'rishi va mavjud imkoniyatlardan o'rinli foydalana bilishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T. Sumner "5 Essential Benefits of Learning Foreign Languages Online". 2013. 1-bet
2. D. A. Luke "Multilevel modellashtirish". 2019
3. F. Fayzullayeva "Onlayn ta'limning afzalliklari va kamchiliklari". 2020. 3-bet
4. Makhmudova G.B. The Development of Scientific Theories of Metaphor Translation from the Cultural Point of View. International Journal on Integrated Education 6 (5), 329-332